

берилетуғын сарпай»[6:374]. Ал Л.З.Будагов бул сөздин тек бир ғана мәністе қолланылатуғынын көрсеткен: «келиннің әкесінен сарпай» [9:183]; қазақ тилинде *кіеті, кийі, киймек, кийіу* феиілінен алынған. Қазақ тилинде бул лексеманың қатнасыуы менен *тоғыз кийит* «тоғыз түрлі нәрселерден қуралған сарпай», *қудаша кийит* «қудашаға берилетуғын сый» этнографизмлери пайда болған хәм фразеологизмлердин жасалыуына тийкар болған.

Той баслар— той баслаған адамға берилетуғын кәдесыйлық.

Өлі-тирисин беріу. Күйеу тәрпінен қалыңлық тәрпке берилетуғын мал. Оны қалыңлықтың үйі сойып, аүйл-аймаққа берген [5:168]. Этнолингвисталым Ж.А.Манкеева бул фразеологизмнің соңғы сыңары, яғный тириси — қалың малдың аяқлы түрі, ал өлісі — жыртыс, жасау сыяқлы қымбат затлар [10:86],— деп көрсетеді. Ал А.Жүнісов: бул дизбектегі өлі менен тиринің айтылыуы «Алдағы қудалық баянлы болыу ушын екі тәрп өлі менен тиринің алдында үәде беріп, ант етеді!» дегенди айтады, сонлықтан да әкелінген мал усы үәдеге аталып сойылады, енді екі тәрп бир-бирін куда-кудағай деп атауларына болады [11:79]. Өлі-тириге деп берілген мал қурбанлықтың қорғаушы әруақларына арналып қурбанлыққа шалынады. Өлі-тирисин беріу — халқымыздың «өлі ырза болмай, тири байымайды» деген түсинигинен тууған дәстүрге байланыслы пайда болған фразеологизм. Бул халықтың әруақты құрмет етиуинің,

ийманлығының белгисин көрсетеді. Екинши тәрптен, шаңарақ көтерген екі жасқа өлінің де, тиринің де тилекши болыуын қаләу нийетин де билдиреді.

Иліу беріу— күйеу есик ашып келгенде әкелетуғын қалың малдың басы.

Жыртыс сыйлық, жыртыс тауар— күйеу биринши рет келгенде қалыңлық тәрптен жол ашатуғын адамларға арнап әкелетуғын шапан, көйлек орнына берилетуғын тауарлар.

Қол услатар, шаш сыйпау— қол ушлау, шаш сыйпатыу ырымларын жасауға жәрдем еткен жеңгениң алатуғын сауғасы.

Сүт хақы— күйеу баланың қәйин енесине беретуғын сауғасы.

Қазақ халқының қыз узатыу, келин түсириуіне байланыслы қәлиплескен көплеген фразеологизмлер тойға байланыслы оғада бай дәстүрлери менен салт-санасына тийкарланған мәдени мийрасы бар екенлигине көз жеткізеді. Хәр түрлі ырымларға сәйкес сый-сыпатлардың атамалары тек материаллық байлықты ғана емес, миллеттин рууый байлығын да көрсетеді.

Жуумақлап айтқанда, қазақ тилиндегі этнофразеологизмлер қурамындағы рууый мәдениетке байланыслы атамалар көркем сөз сыпатында, хәр түрлі затлар менен кубылысты образлы етип атау ушын әуладтан-әуладқа берилип қиятырған таяр сөз үлгилери, тил бирлиги ретинде тарийхий-лексикологиялық сөз туудыратуғын қурал сыпатында хызмет етеді.

Әдебиетлар

1. Гердер И.Г. Идеи к философии истории человека. —Москва: 1977. —С.712
2. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. —Алматы: «Ғылым». 1977. 507-б.
3. Қазақ тілінің түсіндірме сөздігі. -Т.8, 9, 13.—Алматы: «Дәуір», 2011. 48-б; 137-б; 12-б.
4. Қазақ ұлттық энциклопедиясы.—Алматы: Т.7. Қазақ энциклопедиясы, 2004. 426-б; -Т. 6. 459-б.
5. Жанпейсов Е. Этнокультурная лексика казахского языка. —Алма-Ата: «Наука», 1989. —С. 104-105.
6. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. -Т. 2. СПб, 1911. —С. 255; 374.
7. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь. —М.: Советская энциклопедия, 1965. —С. 331.
8. Ондасынов Н. Парсыша-қазақша түсіндірме сөздік. —Алматы: «Білімі», 2003. 246-б.
9. Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко- татарских наречий. (СПб. Типография императорской Академий наук, 1871.—Т. II.). —Москва: Изд-во вост. лит., 1960. —С. 183.
10. Манкеева Ж.А. Мәдени лексиканың ұлттық сипаты. -А.: 1997. 86-б.
11. Жүнісов А. Бабалар дәстүрі. —Алматы: 1992. 79-б.

Хар бир халқнинг тилида миллий урф-одатлари билан боғлиқ этнофразеологизмлар қўлланилади. Улар халқнинг атроф-мухитта, хаётта бўлган дунёкараши, ишончларига боғлиқ ривожланиб, авлоддан-авлодга ўтиб бугунги кунга етиб келган. Мақолада қозок халқининг урф-одатига, маънавий маданиятига, тўй бериш, куда бўлиш каби оилавий анъаналарга боғлиқ «бешик куда», «сарпо бериш», «тўй бошлар» ва ҳоказо этнофразеологизмларга лингвистик таҳлил қилинган.

В языке каждого народа используются этнофразеологизмы, связанные с национальными обычаями и традициями. Они формировались и передавались из поколения в поколение в связи с отношением населения к окружающей среде, к жизни, убеждениями и дошли до наших дней. В статье сделан лингвистический анализ этнофразеологизмов, сложившихся в связи с семейными традициями казахского народа, духовными обычаями, обрядами как «бесик куда», «кийит кийгизіу», «той баслар» и т.д.

In the language of each nation has ethnofraseologisms associated with national customs and traditions. They were formed and passed down from generation to generation in connection with the attitude of the population to the environment, to life, beliefs and have reached our days. The article makes a linguistic analysis of ethnofraseologisms that have developed in connection with the family traditions of the Kazakh people, spiritual customs, rituals such as "besik kuda", "kiyit kiygiziw", "toy baslar" and so on.

О‘ЗБЕК ВА ҚОРАҚАЛПОҚ ТИЛЛАРИДАГИ “НУТҚ” МА‘НОЛИ ФРАЗЕМАЛАРДА ПАРАДИГМАТИК ВА СИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР

N.G.Allamberganova – mustaqil tadqiqotchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: frazema, frazosemema, “nutq” ma’noli frazemalar, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, tayanch a’zo.

Ключевые слова: фразовый глагол, фразовые глаголы со значением «речь», парадигматическая связь, синтагматическая связь, базовый член.

Key words: phrasal verb, phrasal verbs with the meaning "speech", paradigmatic connection, syntagmatic connection, basic member.

Prof. B.Yo‘ldoshevning ko‘rsatishicha frazemalarning morfologik strukturasi va paradigmasi bo‘yicha V.P.Jukov, A.M.Chepasova, L.V.Semenkova, A.V.Jukov, V.N.Grishanova, frazemalarning gap tarkibidagi sintaktik vazifasi haqida S.G.Gavrin, L.A.Kim, O.V.Shavkunova, V.M.Burmakov kabi olimlarning tadqiqotlari e‘lon qilingan [1:5].

Tayanch a‘zosi ot leksema bilan ifodalangan, sintaktik qurilishi birikmaga teng frazemalarning bir qismi sifat turkumiga mansub. Bunday frazemalar mazmunan (“predmetning sifatiy belgisi” semasi bilan) va grammatik shakli bilan ot frazemalardan farq qiladi. Sifat frazema tarkibida, sonlovchi va turlovchi qatnashmaydi, nutqda sifatlovchi vazifasida keladi (shunga ko‘ra “sifatlovchi” sintaktik semasi qo‘shiladi) [2:192].

Nutq ma'noli frazemalar tarkibida asosan tayanch a'zosi sifat bilan, notayanch a'zosi nisbatlovchi ot bilan ifodalangan sifat frazemalar uchraydi. **Til(i) kesik** frazeması tayanch a'zosi hech qanday grammatik vositalarsiz keyingi bo'lakka bog'lanadi. Misol: *Yo'ichi... bir zumda odamlarga qarab chiqdi. Ba'zilarining ko'zida zulmga nafarat, ba'zilarida yolg'iz, qo'rquv ko'rdi: Hammaning tili kesik, faqat shipga osilgan bedanalar urinadi* (Oybek).

Nafasi sovuq frazeması otlashganda ot qabul qiladigan morfemalarni o'ziga olib, grammatik munosabatga kirishadi. Misol: *Bu nafasi sovuqni qishloqdan haydash kerak!* (S.Anorboev). Otga bog'lanib kelganda esa grammatik ko'rsatkich olmaydi. Misol: *Viliyam dedingizmi? Muncha ham nafasi sovuq odam ekan* (S.Nazar).

Qoraqalpoq tilidagi awızı jeñil, sózi ótkir frazemalarining morfemalarni qabul qilishi va grammatik munosabatga kirishishi o'zbek tilidagi frazemalarnikiga o'xshash. Misollar: *Onıń awızı jeñil. Uyat-ábireysiz, keldi-ketpeli gáppler shıǵ'adı onıń awızınan* (M.Nızanov).

Nayatiy ótkir dım sózi zang'ardıń,

"Qaymtıqpań tilip keter qılıstay (H.Ayımbetov).

Sifat frazemalarga grammatik shakllarda ishlatilish xos emasligi ma'lum bo'ladi. Yuqoridagi ko'rinishdagi qurılıshi gap shaklga teng iboralarda ham sifat frazemalar grammatik shakllanmasligini ko'rdik.

Tayanch a'zosi fe'ning vazifadosh shakllari bilan ifodalangan ravish frazemalarda tayanch a'zo **-gan** sifatdosha shakli, **-da** morfemasini olib, payt ma'nosini ifodalaydi. **Og'iz juftlaganida** frazemasidagi kabi. Misol: *Bizga ko'zi tushib, bir narsa demoqchi bo'lib og'iz juftlaganida, Golovin uning so'zini bo'ldi.* (M.Muhamedov). Frazemaga ko'makchi fe'llar qo'shilganda, tuslovchi qo'shimchalar oxirgi komponentga qo'shiladi: *Bir narsa aytmoqchi bo'lib og'zimni juftlab turgan edim, telefon jiringlab qoldi.* (Oydin).

Lab(i) lab(i)ga tegmay frazeması tarkibidagi birinchi komponent nisbatlovchi olgan, ikkinchi komponent nisbatlovchi va jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan, uchinchi komponent fe'ning bo'lishsizlik shakli va ravishdosha yasovchi qo'shimchani olgan. Harakatning bajarilish holatini bildirib kelgan. Misollar: *Hojimat labi labiga tegmay javrab ketdi* (S.Ahmad). *Undan narida bir qalalar labi labiga tegmay g'azal o'qiydi* (Sh.Toshmatov).

Lab(i) lab(i)ga tegmaydi frazeması ham mavjud bo'lib, u tuzilishiga ko'ra gapshaklga teng hisoblanadi [3:166].

Qoraqalpoq tilidagi erini erinine tiymey (**labi labiga tegmay**), jag'ı jag'ına juqpay (**jag'i jag'iga tegmay**), awızı-awızına juqpay (**og'zi -og'ziga tegmay**) frazemalarining tuzilishi, komponentlari qabul qilgan morfologik ko'rsatkichlar o'zbek tilidagi **labi labiga tegmay** frazemasiniki bilan o'xshash. Misollar: *Bala Shımbaydan qashan shıqqanın, keshirim xat alg'anın, qandasın kórip ketiwe kelgenin, qudasınń "búginnen qalsa kóre almay qalasañ", degenin awızı-awızına juqpay, sawdırıp aytip shıqtı* (Sh.Seytov).

"Lom-mim" demay II frazeması tarkibidagi birinchi va ikkinchi komponentlar arab imlosidagi harflarning nomi bo'lib, ko'chma ma'noda "mutlaqo gapirmaslik" ma'nosida ishlatiladi. Uchinchi komponent fe'ning bo'lishsizlik shakli va ravishdosha yasovchi qo'shimchani olgan. Harakatning bajarilish holatini bildirib keladi. Ba'zan birinchi va ikkinchi komponentni bir-biriga bog'lash uchun **-u** yuklamasi ham ishlatilishi mumkin. Misollar: *Hamma uning aytganini "lom-mim" demay bajarayotganini Rahim ko'rib turgan edi* (H.Nazir). *Qolgan fuqarolarning osoyishtalik bilan kori-xayr ishida "lom"-u "mim" demay ish-lamog'lari lozim ekanini so'yladi* (G'.G'ulom).

Ikki og'iz frazemasining birinchi komponenti son, ikkinchi komponenti otidan iborat bo'lib, miqdor ma'nosini ifodalaydi. O'zidan keyingi qismga hech qanday

morfologik ko'rsatkichlarsiz bog'lanadi. Nutqda **bir-ikki og'iz, ikki-uch og'iz** shaklidagi allofrazemalari ham ishlatiladi. Misollar: *Siz bilan bir-ikki og'iz suhbatlashgani kelgan edim* (N.Maqsudiy). *Jo'ra... mehmonlar tomonga bemalol yurib bordi, hatto ba'ziları bilan ikki-uch og'iz so'zlashib, ko'chaga chiqib ketdi* (Oybek).

Qoraqalpoq tilidagi **tilin jutıp qoyg'anday** (tilini yutib qoyg'anday), **awızın buwg'an ógizdey** (og'zini bog'lagan ho'kizday) frazemalari tarkibidagi birinchi ot komponenti tushum kelishigi qo'shimchasini (**-n**), ikkinchi fe'l komponent birinchisida ravishdosha (**-ıp**), ikkinchisida sifatdosha (**-g'an**) qo'shimchasini, uchinchi komponenti birinchi frazemada fe'l asosga sifatdosha (**-g'an**) qo'shimchasini, undan keyin o'xshatish qo'shimchasini (**-day**), ikkinchi frazemada uchinchi ot komponent o'xshatish qo'shimchasini (**-day**) olish orqali keyingi bo'lakka bog'lanadi. Misollar: *Qalbay tilin jutıp qoyg'anday ses semirsiz qaldı* (A.Baymuratova). *Qalbay ele tilin jutıp alg'anday únsiz kiyatır* (A.Baymuratova). *Ushpag'a qanatı bolmay asıǵ'ıp otırǵ'an jigiti, endi álle nemirge shekem awızın buwg'an baspaqtay úndemey otırdı* (O.Xojaniyazov). *- Bizin bir jaman jiyennin úyi bar. Sog'an barayıq, - dedi kúni menen awızın buwg'an ógizdey tım-tırıs kiyatırǵ'an Sayımbet* (O.Xojaniyazov).

Prof. Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi" nomli tadqiqotida frazemalarni dastlab bog'lashuvli va bog'lashuvsiz frazemalarga ajratadi. Bog'lashuvli frazemalarni a) bir bog'lashuvli; b) ikki bog'lashuvli; v) uch bog'lashuvli frazemalar deb tasniflaydi. Bir bog'lashuvli frazemalarni: a) ega bilan bog'lashuvli frazemalar; b) qaratuvchi bilan bog'lashuvli frazemalar; v) to'ldiruvchi bilan bog'lashuvli frazemalar deb uchga bo'lib tahlil qiladi. Ikki bog'lashuvli fe'l frazemalarni: a) ega va qaratuvchi bog'lashuvli frazemalar; ega va hol bilan bog'lashuvli frazemalar deb ikkiga ajratadi. Uch bog'lashuvli fe'l frazemalarni alohida tahlil qiladi [4:125].

Qoraqalpoq tilshunosi J.Tanirbergenov "Qoraqalpoq tilida fe'l frazeologizmlarning lingvistik tahlili" nomli dissertasiyasining uchinchi bobida qoraqalpoq tilidagi fe'l frazeologizmlarning struktur tiplari va paradigmatic xususiyatlarini tadqiq qilgan. Bobning "Fe'l frazeologizmlarning struktur tiplari" deb nomlangan birinchi bo'limida qoraqalpoq tilidagi fe'l frazeologizmlarning tarkibi, qurilish modellari o'rganilgan. "Fe'l frazeologizmlar paradigmasi" deb nomlangan ikkinchi bo'limda fe'l frazeologizmlarning paradigmatic shakllari tahlil qilingan. "Fe'l frazeologizmlarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari" deb nomlangan uchinchi bo'limida: 1. Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda ham ishlatiladigan: 2. Bo'lishli shaklda ishlatiladigan: 3. Bo'lishsiz shaklda ishlatiladigan fe'l frazemalarga tasnif qiladi [5:19-23].

Frazema nutqqa kiritilganda, u boshqa til birliklari bilan grammatik aloqaga kirishadi va fikrni ta'sirli, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Tuzilishiga ko'ra birikmaga, gapga yoki gapning turli tiplariga teng qurilishli bo'lsa ham, gapda asosan gap bo'lgi vazifasini bajaradi va turli vazifadagi so'zlar bilan bog'lanadi. Mana shunday bog'lanish sintaktik qurshov deyiladi. Frazemaning biror sintaktik qurshovga ega bo'lishi uning turkumiga, ichki sintaktik qurilishiga, fe'l frazemalarda fe'l so'z-komponentning boshqaruviga va bu boshqaruvning frazema tarkibida reallashgan va reallashmaganligiga, ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksiga bog'liq bo'ladi.

Frazemalarning bog'lashuv imkoniyati asosan ularning qaysi turkumga mansubligi bilan belgilanadi. To'plagan misollarimizda har ikki tilda ham ot turkumiga mansub "nutq" ma'noli frazema uchramadi. Ularning ko'pchilik qismi fe'l, kam qismi sifat va ravish turkumiga mansub ekanligi aniqlandi.

I. Sifat frazemalarning bog'lashuvi sintaktik qurilishiga va gapdagi vazifasiga bog'liq bo'lib keladi.

1. Birikmaga teng qurilishli frazemalar:

a) ot leksemaga bog'lanib, gapda sifalovchi vazifasida keladi: **shirin so'z yigit, og'zi mahkam brigadir, otash zabon shoir** kabi. Misollar:

"Brigadir deganingiz... **og'zi mahkammi?**" – "Bu tomondan shubham yo'q, mana to'rt yildan buyon changini chiqarmaydi". (R.Fayziy).

U ming'irlab, ma'ruzachi **otash zabon** ko'p qadrli shoir'larga til tegizganini aytib, "Adabyotimizning gullari bo'lgan u muhtaram shoir'larning obro'sini tushirish g'oyat uyat, fojii", – dedi (Oybek).

Qoraqalpoq tilida: **tili ashshi hayal, awizi ashq adam, tili mayli adam** kabi. Misollar: *Qalay oylamasin? Tili mayli adam. Amanliqqa takir-tukirlik etpeydi* (T.Qayipbergenov). Gapga teng qurilishdan birikmaga teng qurilishga va aksincha aylanish "nutq" ma'noli frazemalarda juda kam uchrashi aniqlandi. Qoraqalpoq tilidagi **awizi ashq (og'zi ochiq)** frazemasiga gapga teng qurilishli bo'lib, "Qoraqalpoq tilining frazeologik so'zligi"da "sir saqlay olmaydigan, g'iybatchi" ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan. [6, C.17]. **Ashq awiz (ochiq og'iz)** frazemasiga ham "sir saqlay olmaydigan, g'iybatchi" ma'nolarini ifodalashi ko'rsatilgan [6:22].

Sariatawduh' usti menen Shag'al jag'isina tawir-aq qalg'anda bir sharwan'ni uyine qos basti. uy iyasi anqildag'an ashq awiz adam eken, bir serkeni kehespesten jayratt da taslad (Sh.Seyitov).

Frazemalarning birinchisi gapga, ikkinchisi birikmaga teng qurilishli hisoblanadi. Misollar: "Bar, joldas Saparov. Men siz aytqanday anqawda, awizina kók shb'n kirip shig'atug'in **awizi ashq ta emespen, bildin bez!**" (Sh.Seyitov). – **Awizi ashq** bolmasan, shabarman degen za'ngardan ispolkomni parmanin soramaymisan, tildey qag'az almaymisan! – dep kuyindi Saparov (Sh.Seyitov).

b) egaga bog'lanib, gapda kesim vazifasida keladi. Tili uzun, tili o'tkir kabi: *Shu tobda uning tili uzun edi, chunki u hammadan oldin o'z uyidan bir zambilg'altak novda keltirgan edi* (H.Nazir). Gapingni bilib gapir, hushyorroq muomala qil. Ko'ngli nozik, **tili o'tkir** – bir so'z bilan umidingni shart kesib qo'yishi mumkin (I.Rahim).

Qoraqalpoq tilida: **tili bay (juyrik), tili muki, so'zi otkir** kabi. Misollar: *Qaraqalpaq xalqi – so'zge sheber, tili bay, har bir aytqan so'zin naqil-maqal, frazeologizm menen tastiyqlap soyleytug'in xalq* (A.Pirniyazova). *Soni alams, son uyde kimni so'zi otkir ekenin bilip qoyadi* (B. Ziywarova).

2. Gapshaklga teng qurilishli birikmalar:

1) ot leksemaga bog'lanib sifalovchi vazifasida keladi; bunda tuslovchi tashlanib, "sifatlovchi" sintaktik semasi qo'shiladi; ega bo'lak tarkibida ko'pincha nisbatlovchi qatnashadi; odatda III shaxs nisbatlovchisi, ba'zangina boshqa shaxs-son nisbatlovchisi qatnashadi: **Tili achchiq. Balki bu yosh yigitning (Sherbekning) tili achchiqd**... *Balki u ba'zi birovlar qilgani kabi hayotimizdagi nuqsonlarni ko'ra-bila turib ko'z yumib o'ta olmas* (S.Anorboyev). *Elmurodga rota komandiri yoqmadi, qalampir, tili achchiq, har gapni pisanda qilganday, burab gapiradi* (Shuhrat).

Qoraqalpoq tilida: **tili zahar (uwayday), awizi buz** kabi.

Men tentekpen tilim ashshi zahardey, Tenep jurmen jang'a jaqqan bahardey (Arıwxan).

2) Gap vazifasida keladi; frazemaning ega a'zosi tarkibida nisbatlovchi qatnashadi va uch shaxs-son nisbatlovchilaridan biri tanlab qo'shiladi; demak, bunday frazemalarda qaratuvchi bo'lak bilan bog'lanish imkoniyati mavjud; tayanch a'zo:

a) hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe'l leksema bilan ifodalanadi: **bir so'zi eki shiqti (kimning), aytwg'a tili (awizi) barmadı (kimning)**, kabi. Misol: *Sen uslap tutqan buyımlardı mañlayına tiygizip, süyip jıladı. Onı qoydıra almadım. Qoy dep aytıwg'a tilim barmadı* (M.Nızanov). *Ondag'ı eki jas pa? Onda bizler-ám eki*

jıldan keyin... — Arjag'ın aytıwg'a awızım barmadı (M.Nızanov).

b) sifal leksema bilan ifodalanadi: *Atın tört buwınnan, aytıwg'a tilge awır* (I.Yusupov)

Demak, gapshaklga teng qurilishli frazema (umuman har qanday sintaktik birlik) nutqda o'z sintaktik qurilishiga mos holda gap (jumla) vazifasida ham, shuningdek o'rni bilan birikmaning bo'lagi (masalan, sifalovchi) vazifasida ham ishlatiladi.

II. Ravish frazemalar sintaktik qurilishi va grammatik shaklidan qat'i nazar fe'l leksemaga, kesimlik leksemasiga bog'lanib hollovchi vazifasida keladi: **og'ziga kelganini bo'g'zidan qaytarmay haqorat qildi, tilingizni bir qarich qilib gapir-, ikki og'izgina suhbatlash-, qoraqalpoq tilidagi awizin ashaman degenshe bolw, awizina qum quyilg'anday soylemedi, tilin jutıp qoyg'anday undemeydi** kabi.

III. Fe'l frazema kamida ikki leksemadan tarkib topadi. Fe'l frazemalarda tayanch a'zo fe'l leksema bilan, notayanch a'zo esa asosan ot leksema bilan, ba'zan boshqa turkum leksemasi bilan ifodalanadi. Fe'l frazemaning bog'lashuv imkoniyati avvalo uning tarkibidagi fe'l leksemaga qarab belgilanadi.

Fe'l frazemalarning bog'lashuvi ot, sifat va ravish frazemalarga qaraganda nihoyatda murakkab va xilma-xil ekanligi adabiyotlarda ko'rsatilgan. To'plagan misollarimizda "nutq" ma'noli fe'l frazemalarda ham bir bog'lashuvli, ikki bog'lashuvli, uch bog'lashuvli frazemalar borligi aniqlandi. Bir bog'lashuvli frazemalar:

Chiqish kelishigida shakllanadi: **og'z(i)dan bol tomadi (kimning), gap(i)dan latta hidi keladi (kimning)** kabi. Mazkur frazemada ega bo'lak qaratuvchili birikma bilan ifodalgan. Qoraqalpoq tilida: **awizinan pal tamadı, so'zinen pal tamadı** kabi.

Kórip turg'an joqpan ba ya túsimde,

Sóylegenin pal tamızıp sózinen (A.Qayıpov).

Uchinchi a'zo sifatida jo'nalish kelishigidagi so'zshakl qatnashadi: *chakagi chakagiga tegmaydi* (nimaning). Qoraqalpoq tilida: **awizi awizina juqpadı (tiymedi), erini erinine tiymeydi, jag'ı jag'ına juqpadı** kabi.

"Nutq" ma'noli ikki bog'lashuvli fe'l frazemalarning quyidagi shakllari uchradi:

1) frazemaga bog'langan vositali to'ldiruvchi jo'nalish kelishigida shakllanadi.

a) Frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *gap bermoq* (kim kimga), *dakki bermoq* (kim kimga), *baytu g'azallar aytmoq* (kim kimning sha'niga).

Oxirgi frazemada vositali to'ldiruvchi qaratuvchili birikma bilan ifodalanadi.

Ko'rinadiki, bu tur frazemalar tarkibidagi vositasiz to'ldiruvchining kelishigi odatda belgisiz bo'ladi. Faqat bir frazemada vositasiz to'ldiruvchining belgililigi uchraydi: *gapni to'kib solmoq* (kim kimga).

b) Frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi va chiqish kelishigida shakllangan vositali to'ldiruvchi qatnashadi: *gapini og'zidan oldirmoq* (kim kimga).

2) Frazemaga bog'lanadigan vositali to'ldiruvchi chiqish kelishigida shakllanadi:

a) frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *bir gapdan qolmoq* (kim kimdan).

b) frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchidan tashqari ravish holi ham qatnashadi: *gapini og'zidan yulmoq* (kim kimdan). Bu frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi sifatlovchili birikma bilan ifodalgan.

3) Frazemaga bog'lanadigan vositali to'ldiruvchini bilan ko'makchisi shakllantiradi, frazema tarkibida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *og'zining tanobini tortmoq* (kim kimning), *til-jag'ini bog'lamoq* (kim kimning). Oxirgi ikki frazemada vositasiz to'ldiruvchi vazifasida predikativ sintagma kelgan.

“Nutq ma’noli frazemalardan uch bog’lashuvli ega qaratuvchi va to’ldiruvchi bilan bog’lashuvli frazemalar turiga kiradigan bir frazema uchradi. Bunday frazemaning ega bilan bog’lashuvi odatda kishiga atalgan bo’ladi (nima (o’zining) kimni).

Bu tur frazemalarning qaratuvchi bilan bog’lashuvi ham kishiga atalgan bo’ladi. Faqat bir frazemada qaratuvchi bilan bog’lashuv narsaga atalgan bo’lib chiqdi: *uchini chiqarmoq* (kim nimaning, kimga). Ko’rinadiki, bu frazema tarkibida jo’nalish kelishigidagi vositali to’ldiruvchi qatnashadi, fe’l a’zo umumlashgan fe’l bilan ifodalanadi.

Adabiyotlar

1. Yo’ldoshev B. O’zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Toshkent: “Muharrir”, 2013. 5-b.
2. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. Ikkinchi kitob. – Toshkent: «Mumtoz so’z», 2010. 192-b.
3. Rahmatullaev Sh. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. – Toshkent: «Qomuslar Bosh tahririyati», 1992. 380-b.
4. Rahmatullaev Sh. O’zbek tilida fe’l frazemalarning bog’lashuvi. – Toshkent: Universitet, 1992. 125-b.
5. Tanirbergenov J. Qoraqalpoq tilida fe’l frazeologizmlarning lingvistik tahlili. Filol. fan. bo’y. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Nukus: 2020. 19-23-b.
6. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qoraqalpoq tilini frazeologizmlar so’zligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2018. 160-b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o’zbek va qoraqalpoq tillaridagi “nutq” ma’noli frazemalardagi paradigmatic va syntagmatic munosabatlar tahlil qilingan. Frazemalarning boshqa gap bo’laklari bilan bog’lanishi uchun ma’lum paradigmaga ega bo’lishi va sintaktik vazifalari asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются парадигматические и синтагматические отношения в словосочетании «речь» в узбекском и каракалпакском языках. Фразы имеют определенную парадигму и синтаксическую функцию для связи с другими частями речи.

SUMMARY

The article is analyzed paradigmatic and syntagmatic relations in the phrase "speech" in the Uzbek and Karakalpak languages. Phrases have a specific paradigm and syntactic function to connect with other parts of speech.

«ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНИҢ ЖАҢА ТАРИЙХЫ БОЙЫНША ОЧЕРКЛЕРИ» ҲАҚҚЫНДА

Б.Аманбаев – магистрант

Эжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: тил, туркологлар, қорақалпоқ тили, ривожлантириш, графика кириллча, лотин, муаммолар, халқ.

Ключевые слова: язык, тюркологи, графика, каракалпакский язык, развитие, кириллица, латиница, проблемы, народ.

Key words: language, turcologists, graphics, the karakalpak language, development, cyrillic, latin, problems, people.

Қарақалпақ тил илимининң раўажланыўына тарийхий тәрәптен нәзер салатуғын болсақ, қарақалпақ тилиниң дәслепки изертлеўшилиери шет ел туркологлары болған. Атап айтқанда, Н.А.Баскаков, А.Беляев, В.В.Радлов, И.Березин, С.Е.Малов, К.Г.Менгес, Е.Д.Поливановлар қарақалпақ тили, тарийхы ҳәм курамалы машқалалары бойынша бир қанша илимий арнаўлы изертлеўлер алып барған.

Шет ел туркологларының қарақалпақ тилине болған қызығушылығы XVIII әсирден басланған. Ал, олардың тийкарғы мақсетлериниң бири бул түркий тиллердиң классификациясын жаратыўдан ибарат болған. Узақ жыллар даўамында, көплеген изертлеўлер өз жемисин бере баслаған. Алымлар бәрше түркий тиллерди бир неше топарларға бөле баслағаннан соң, өз ара түсинбеушиликлер хәм ҳәр түрли дискуссиялық пикирлердиң келип шыққанының гүўасы боламыз. Соның ишинде Н.А.Баскаковтың классификациялық схемасы айрықша орынға ийе десек қателеспеген боламыз. Ол тиллердиң бәршесин еки үлкен топарға бөледі–«батыс хун» хәм «шығыс хун». Оннан кейин бул еки тармақты бир неше үлкен хәм киши топарларға бөлип шығады. Усы күнге шекем түркий тиллердиң 70 тен аслам классификациясы жаратылған болса да, олардың бирде биреўи дүнья жүзлик туркологлары тәрәпинен бир аўыздан мақуланбаған. Буның тийкарғы себеби, тиллер арасындағы жақынлық дәрежесин көрсететуғын өлшемлердиң жаратылмағанлығы менен байланысly болып атыр. Соның менен бирге бул машқала тек ғана түркий тиллерге тән қубылыс болмастан, ал дүнья жүзлик тиллерге де тийисли болып отыр. Заманагөй методлар хәм илиминиң раўажланып атырғанлығы себепли тил билиминде келип шыққан машқалаларды шешиў имканиятларына ийе болмақтамыз. Мысал ретинде айтатуғын болсақ, квантикалық моделлестириў методлары жәрдеминде тиллердиң жақынлық дәрежесин анықлаў мүмкиншиликлери табылды хәм ол биринши мәрте түркий тиллерде сынап көрилди. Хәзирги ўақытта бул моделлерди басқа топардағы тиллерде пайдаланыў мүмкиншилиги бар екенлиги анықланды. Солар ишинде фин-угор, кавказ хәм семит тиллери буған мысал бола алады [1:7,11].

Биз билемиз, Орта Азия түркий халықлары ислам дининде болғанлығы себепли өз әдебиятын, тилин, жазыўларын араб графикасында жаратқан. Совет дәўирине шекем белгили қарақалпақ шайырлары, жазыўшылары өз шығармаларын араб графикасында жазған. Елимизде Совет хукиметиниң орнаўы менен мусылман динине қарсылық күшейе баслайды хәм уламалар, молла-ийшанлар қуўдалаўға ушырайды. Сол себепли үлкемизде рус-тузем мектеплердиң ашылыўы хәўиж алады хәм де араб графикасынан латын графикасына өтиў жумыслары басланады. 1924-1925-жыллары «Еркин Қарақалпақстан» газетасы шығады хәм Төрткүлде педагогикалық техникумлар ашылады. Бул биринши билимлендириў мәдениетимыз бенен баспа сөздиң пайда болыўы қарақалпақ халқының илиминиң раўажланыўына тийкар салды десек болады. Бирак бул өзгерислер жүдә аўыр шараятларда алып барылады. Атап өтетуғын болсақ, типовой имараттың болмаўы, педагог кадрлардың жетиспеушиликлери, сабақлықлар хәм оқыў қолланбалары менен тәминлеу сыяқлы машқалалардың шешимин табыў менен бир қатарда оқыў процессин шөлкемлестириў мәселеси ўазыйпа болып белгиленген еди. Қарақалпақ тилиниң раўажланыўында пидайы хызмет еткен Бахий Иргалиев пенен Генжебай Убайдуллаевтың орны да жүдә айрықша. Олар педтехникумды жақсы бақаларға питкерип усы оқыў орнында жумыс ислеп қалып, қарақалпақ тили хәм әдебияты сабақлықларын, бағдарламаларын, хәм оқыў қолланбаларын дүзип шыққан.

Жоқарыда атап өткен жағдайлар 1926-жылы Баку қаласында шөлкемлестирилген 1-Туркологиялық съездинде итибардан шетте қалмады хәм бир қанша хужимлер хәм наразылықлар келтирип шығарды. Усындай жағдайларда елимиздың абыройын сақлап қалыў ушын, мәселелерди дурыс аңлаўшы, объектив бақа беріўши, қала берсе өзиниң әдеплилиги, киши пейиллиги хәм ораторлық қасийетлери менен айрылып турған Қасым Әўезов, Нәжим Дәўқараев, Қаллы Айымбетов киби ел басшыларымыз халық ары ушын жүрип, ана тилимизди жәхән аренасына танытқан хәм сақлап келген.

Қысқа мүддеттиң ишинде Төрткүл қаласында 1929-жылы дәслепки сабақлықлар менен оқыў қолланбалар